

OSKAR UAYLD ASARLARIDA PEYZAJ SAN'ATINING O'RNI HAMDA "DORIAN GREY PORTRETI" ASARIDAGI BA'ZI CHIZGILAR

Shirinmoh To'rayeva

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Jurnalistika fakulteti

2-bosqich talabasi

Annotatsiya. XX asr jahon adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan taniqli yozuvchilardan biri Oskar Uayld ijodidagi peyzaj san'ati haqidagi ba'zi chizgilarni kòrib chiqamiz. U ózining yuksak badiiy mahorati hamda yaratgan betakror asarlari bilan ingliz xalqi ma'naviyatining yuksalishida alohida òrniga ega. Asarlarida o'sha davr muhitini, ijtimoiy hayot masalalarini, hayot haqiqatini murakkabligicha va to'laligicha, ziddiyatlari bilan boricha namoyon etish, o'tkir ijtimoiy masalalarni dadil ko'tarib chiqishi shuningdek, insonlarning qalbidagi his-tuyg'ularini hamda murakkab tabiatini ya'ni uning shuurini, olovini osongina ravon va sodda til orqali qalamga olib tasvirlashi adib ijodiyotining asosiy xususiyatlaridan biridir.

Kalit so'zlar: badiiy adabiyot, Oskar Uayld asarlarida peyzaj san'ati, "Bulbul va gul", "Dorian Grey portreti" da qalb tasviri.

Oskar Uayld XX asr jahon adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan taniqli yozuvchilardan biridir. U o'zining yuksak badiiy mahorat bilan yaratgan betakror asarlari bilan ingliz xalqi ma'naviyatining yuksalishida o'ziga xos o'rniga ega. Oskar Uayld ijodi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning ijodini qamrab olgan odamiylik, falsafiylik, tarixiylik kabi ezgu g'oyalar tamoyili beixtiyor kitobxonni mushohadaga chorlaydi. Buyuk ingliz yozuvchisi, tanqidchi, shoir, dramaturg yoshligidan adabiyotga qiziqqan adib hashamdor she'rlari bilan fransuz simvolistlariga yaqin turardi. Asarlarida o'sha davr muhitini, ijtimoiy hayot masalalarini, hayot haqiqatini murakkabligicha va to'laligicha, ziddiyatlari bilan boricha namoyon etish, o'tkir ijtimoiy masalalarni dadil ko'tarib chiqishi shuningdek, insonlarning qalbidagi his-tuyg'ularini hamda murakkab tabiatini ya'ni uning shuurini, olovini osongina ravon va sodda til orqali qalamga olib tasvirlashi adib ijodiyotining asosiy xususiyatlaridan biridir. U yozgan asarlari orqali o'zi yashagan muhitni urf-odatlarini qahramon tilidan tanqidiy aks ettirdi. U xuddi J.London, E. Xeminguey, S. Tompson kabi jahonning mashhur yozuvchilari qatorida tabiat mavzusida takrorlanmas asarlar yaratdiki, bu yozuvchi ijodining yaqqol ko'zga tashlanadigan qirrasini sifatida namoyon bo'ldi. Uni peyzaj san'atidan qanchalik ustomonlik bilan foydalanganini asarlarini o'qish davomida ko'rishimiz mumkin. Darhaqiqat, tabiat manzarasi haqida so'z borar ekan, peyzaj san'ati haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz darkor. Peyzaj (fransuzcha paysage – mamlakat, joy) degan ma'nolarni bildiradi. Adabiyotda badiiy so'z vositasidagi tabiat tasviri, ifodasi hisoblanadi. Peyzaj yozuvchining o'z asarida tanlagan ifoda usuli va ijodiy uslubi bilan bog'liq holda turlicha vazifalarni bajarishi mumkin. Tabiat manzarasi orqali yozuvchi o'zining yurtiga, Vataniga, ona tabiatiga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, asarning g'oyaviy, estetik quvvatini oshirish, syujet rivojini tezlatish yoki sekinlashtirish, qahramonning ichki dunyosini ochish kabi vazifalarni bajaradi. Bu bilan peyzaj badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlarni yanada to'laqonli ifodalashga yordam beradi. Misol tariqasida Oskar Uayldning "Gul va bulbul" hikoyasidagi o'rmon tasviri bilan fikrimizni bayon qilishimiz mumkin:

"O'rmonda o'tirib, oltin aroba mingan quyoshni yoxud javohirlardan yasalgan aravada sayr qilib yurgan to'lin oyni tomosha qilish naqadar rohat! O'rmon gullarining muattar hidlari biram shirin, vodiylarda o'sadigan moviy gullarning qo'ng'iroqlari, adirlar ustidagi chuchmomalarning xush bo'yi naqadar yaxshi!" Yoki unga katta shuhrat keltirgan asari "Dorian Grey portreti" asaridagi bog' tasviri ham bunga yaqqol dadil bo'la oladi. "Bog'da yengil shabada tursa, ochiq eshikdan ustaxonaga kirib kelar, o'zi bilan birga ba'zan kishini mast qiluvchi nastarin hidini, ba'zan esa alvon-alvon gullab yotgan do'lana bo'ylarini olib kelardi. U yotgan joydan faqat butazor ko'rinar, undagi oq tollarning asalday xushbo'y va tilladay tovlanuvchi gullari quyosh

alangasida yal-yal yonardi, silkinib turgan shoxlar esa bu zalvorli yaltiroq go`zallikni zo`rg`a ko`tarib turganday tuyulardi, ahyon-ahyonda bahaybat derazaga tutib qo`yilgan uzun ipak pardalar qatlariga, tashqarida uchib ketayotgan qushlar g`aroyib soyalar tashlab o`tishardi. Shunda pardalar sathida bir zum yaponcha suratlar jilolangandek bo`lardi. ...” kabi mahorat bilan qalamga olingan jummalarda ham yozuvchining so`zga qanchalik e`tibor berganligi hamda uni o`z o`rnida qo`llaganini guvohi bo`lamiz. Kitobxon bu jummalarni o`qir ekan bevosita uning asarlarining qahramoniga aylanadi. U tasvirlagan tabiat manzaralarini o`qir ekan, o`zini xuddi shu tabiat qo`ynida yurgandek tasavvur qiladi. Yozuvchida shunaqangi bir ruh borki, u insonni aynan ruhiyatiga ta`sir etadi.

Jahon adabiyotiga o`zining salmoqli hissasini qo`shgan ijodkor Oskar Uayld ijodi bugungi kun yoshlarini ham qiziqtirib, ularni o`ziga jalb qilmoqda. Oskar Uayldning 1981-yilda yaratilgan “Dorian Greyning portreti” asari XIX asr oxiridagi intellektual romonning ajoyib namunasi hisoblanadi va barcha kitobsevarlarni qalbidan chuqur joy olganligi bizni albatta quvontirdi. To`gri insonning qalbi, his-tuygulari haqida boshqa yozuvchilar ham asarlar yaratgan ammo har bir yozuvchi o`z so`zini, o`z fikrini bildirib o`tadi. Bosh qahramon sofdil, rassom Bezil Dorianni birinchi marta ko`rib qolganida uni yigitlarga xos basavlat chiroyiga shaydo bo`lib qoladi so`ng uning rasmini chizishga harakat qiladi. Keyinchalik esa u bilan do`sti Genri orqali yaqin do`st bo`lib oladi. Bezil haqiqiy insoniy tuyg`ularga ega bo`lgan qahramon sifatida gavdalanadi. Dorian - hech qachon o`zining xato va kamchiliklarini tan olishni xohlamaydigan shuningdek, hayotda inson faqat o`zining foydasi, xursandchiligi hamda nafsiga tayanib ish ko`rishi kerak deb hisoblaydigan razil shaxs. Bezil chizgan portretida tirik Dorian Greyning qilg`iliklari aks etmaydi aksincha uning ruhiyatida, qalbida sodir bo`layotgan o`zgarishlar aks etardi. Qalbida kechayotgan har qanday tuyg`ulari uning rasmida akslanar edi. Sibila – pok muhabbatga ega bo`lgan aktrisa Dorianni shartsiz sevgan qahramon ammo Dorian uni faqat teartdagi Julyetta obrazi orqali sevib qolganini aytganidan so`ng bunga jidayolmay o`zini o`ldiradi. Asardagi ba`zi rad etib bo`lmaydigan haqiqatlar qahramon Genri nomidan aytiladi. Bu esa kitobxonni mushohada qilishga undaydi va uning ayrim so`zlarini aslo inkor qilib bo`lmasligini anglatadi. Masalan:

“Dunyodagi eng buyuk gunohi azimlar ham miyada, faqat miyada tug`iladi.”

“Yoshlik asrashga arzimaydigan birdan-bir boylikdir.”

“Ayollar bizni ulug` ishlarga ilhomlantirishadi, lekin hamisha ularni amalga oshirishimizda xalaqit berishadi...”

Bu asar o`z xohish-istaklariga erk berib, tubanlik botqog`iga botib qolgan inson fojiasi hamda o`zlikni anglash haqida, chiroyli narsalarning ortida hamisha biror bir fojia yashirib yotishi, go`zal siymoga ega bo`lgan insonlar ham yomonlik qilishga qodir bo`la olishi shuningdek, inson bu dunyoda faqat qalbi borligi uchun barhayotligi tasvirlangan. Zero, Oskar Uayl bejizga “Dunyoni boshiga ursinmi inson, boy berib qo`ysa u butun qalbini?!” deb aytmagandi. Insonning qilgan yomonliklari, dilxiraliklari bularni hammasi uning qalbida tugun kabi tugilishi hamda bundan aslo qutula olmasligi tasvirlangan. Asar oxirini hayotga tatbiq qiladigan bo`lsak, Dorian o`z portretini ko`rib undan jirkanadi unga pichoq sanchadi ammo u portretga emas o`zining zulmkor nafsiga qul bo`lgan qalbiga pichoq sanchgan bo`ladi. Bundan ko`rinadiki, inson qilgan gunohlari, yomonliklari unutilmaydi rassom uni qog`ozga muhirlagani kabi ular ham insonning qalbida bir umrga muhirlanadi...

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oskar Uayld “Dorian Greyning portreti” asari – T., Zabard Media, 2020 – 5, 114 b
2. Internet materiallari
3. Adabiyot entsiklopediyasi